

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

TIL VA MADANIYAT

ISSN 2181-922X

2022 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

O'ZBEKISTON

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2022 Vol. 2

**www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosarlari: Zaynobiddin Abdirashidov
Qosimboy Ma'murov
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jo'raqo'ziyev.

Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyoung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov
Deputy Editors in Chief: Zaynabiddin Abdirashidov
Kasimbay Mamurov
Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jurakuziyev.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Yorqinjon Odilov

Jamiyat, til va madaniyat.....6

Muhayyo Hakimova

O'zbek tilida "holat" ma'noli abstrakt nomlar.....18

Мехмет Джан

Прошрое и настоящее алфавитов, используемых в
тюркских республиках.....31

Surayyo Ziyotova

"Mehrobdan chayon" da ifodalangan ijtimoiy-siyosiy leksikalar.....44

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Bahodir Karimov

O'zbek jadid nasri va Abdulla Qodiriy.....61

Marg'uba Abdullayeva

Paremik janrlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari
(tarixiy-nasriy asarlar misolida).....72

Nodira Egamqulova

Turkistonda milliy matbuot, adabiyot va adabiy til.....89

Tarix. Manbashunoslik

Shamsiddin Kamoliddin, Shoiraxon Saidjabbor

O'rta asr Samarqand bozorlari haqida yangi ma'lumotlar.....104

CONTENT

Linguistics

Yorkinjon Odilov

Society, language and culture.....6

Muhayyo Hakimova

Abstract nouns meaning "situation state" in Uzbek.....18

Mehmet Jan

Past and present alphabets used in the Turkic republics.....31

Surayyo Ziyotova

Socio-political vocabulary expressed in the work

"Mehrobdan chayon"44

Literature. Translation studies

Bahodir Karimov

Uzbek jadid prose and Abdulla Qadiri.....61

Marguba Abdullaeva

Ideological and artistic properties of paremiological genres

(on the example of historical and prose works).....72

Nodira Egamkulova

National press, literature and literary language in Turkestan.....89

History. Source studies

Shamsiddin Kamoliddin, Shoirakhon Saidjabbor

New data on the *bāzārs* of the medieval Samarqand.....104

“Mehrobdan chayon”da ifodalangan ijtimoiy-siyosiy leksikalar

Surayyo Ziyotova¹

Abstrakt

Til – jamiyatda sodir boʻlgan oʻzgarishlarni oʻzida namoyon qiladigan, tadrijiy rivojlanib boradigan hodisadir. Til va jamiyat uzviy tarzda bir-biri bilan bogʻliq ekan, lugʻat tarkibi asrlar davomida oʻzgarib boradi. Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muhit, davrdagi oʻzgarish, shu jarayonni ifodalovchi ijtimoiy-siyosiy leksemalarda oʻz aksini topadi.

Maʼlumki, har bir asar tili oʻziga xos leksik koʻlamiga ega. Bunga shu asar yaratilgan va asar voqealari ifodalangan davr, intralingvistik va ekstralingvistik omillar taʼsir qiladi. “Mehrobdan chayon” asari leksikasi XIX asr oxiri xonliklar davri XX asr jadidlar davriga oid ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy, maʼrifiy-maishiy tushunchalarni aks ettiruvchi lugʻaviy birliklarni qamrab oladi. Mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asari leksikasidagi ijtimoiy-siyosiy leksik birliklar tarixiy-etimologik jihatdan tahlil qilingan hamda ushbu birliklar semantik maydon asosida tasniflangan.

Kalit soʻzlar: *termin, ijtimoiy-siyosiy leksema, sema, maʼno torayishi, maʼno kengayishi, diaxron aspekt.*

Kirish

Har qanday ijtimoiy-siyosiy leksemaning tarkib topishi va rivojlanishi muayyan ijtimoiy tuzum bilan bogʻliq holda rivojlanadi va leksema ayni shu muhitga xos maʼno-mazmunni ifodalaydi. Ijtimoiy-siyosiy leksika qoʻllanish sohasi, uslubiy belgisi, kelib chiqishi kabi turli jihatlar ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi voqeliklarni oʻzida aks ettirgan lugʻat tarkibining oʻzgaruvchan guruhidir [Исоқова 2010, 8]. Ijtimoiy-siyosiy qatlamga doir har qanday birlik ham termin boʻla olmaydi. Leksema va termin umumiylik (umumxalq uchun tushunarli boʻlish) va xususiylik (muayyan ijtimoiy doira uchun

¹Ziyotova Surayyo Erkin qizi – tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: z.surayyo_92@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-7674-6875

Iqtibos uchun: Ziyotova, S.E. 2022. “Mehrobdan chayon”da ifodalangan ijtimoiy-siyosiy leksikalar”. *Oʻzbekiston: til va madaniyat* 2: 44-60.

tushunarli bo‘lish) belgisi bilan bir-biriga zidlanadi [Замонова 2012, 11]. Jamiyat a‘zolarining mehnat faoliyatida, jamiyat ishlari-ga faol aralashuvida, ularning o‘zaro bir-birlari bilan munosabat-lari natijasida ham ijtimoiy-siyosiy leksika shakllanadi. Ijtimoiy-siyosiy terminologiya leksikaning faol qo‘llanuvchi qatlamlari bo‘lib, u ma‘lum bir tarixiy formatsiyani belgilab beruvchi tarixiy-ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy, madaniy, diniy kabi bosh faktorlar ta‘sirida shakl-lanadi va rivojlanadi [Дадабоев 1991, 68] Shu boisdan ijtimoiy-siyosiy leksemalarni diaxron jihatdan o‘z va o‘zlashgan qatlam, ma‘no kengayishi va torayishi jihatidan o‘rganish zarur.

Ma‘lum bir asar leksikasi mavzuviy-semantik jihatdan tadqiq qilinar ekan, tadqiqot obyektining materiallari hamda asar xarakteri ahamiyatga egadir. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asari-da Qo‘qon xonligining ijtimoiy-siyosiy, maishiy-madaniy hayotini yoritishda ijtimoiy-siyosiy leksemalardan faol qo‘llanilgan. Mazkur asarda 194 ta ijtimoiy-siyosiy leksema uchraydi. Ushbu leksema-lar mavzuviy-semantik guruhlariga tasnif qilinib, tarixiy-etimologik jihatdan tahlil qilindi.

1. Davlat boshqaruvi bilan bog‘liq leksik birliklar:

a) davlatning bosh hukmdori va hukmdor vorislarini bildiruvchi terminlar: *xon, xoqon, amir, amiralmo‘minin, qibla-goh, onhazrat, shohanshoh, dodras, podshoh, shahzoda, valiahd, taxt vorisi, malika, xon harami* [Ziyotova 2019, 22-24];

b) ma‘muriy-hududiy joyni bildiruvchi terminlar: *mam-lakat, saltanat, davlat, xon o‘rdasi, qo‘rg‘on, poytaxt, viloyat, devon-xona;*

O‘rda “hukmdorning qarorgohi” ma‘nosini bildirib, bu ot qa-dimgi turkiy tilda “tepaga harakatlan” ma‘nosini anglatgan *or* fe‘li-ning *-(u)t* orttirma nisbat qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan shaklidan *-u* qo‘shimchasi bilan yasalgan [ЭСТЯ (I), 432], keyincha-lik ikkinchi bo‘g‘indagi tor unli talaffuz qilinmay qo‘ygan; *t* undoshi *r* undoshining ta‘sirida jaranglisiga, so‘z oxiridagi *u* unlisi *ā* unlisiga almashgan: (*or* = *ut* = *orut*) + *u* = *orutu* > *ortu* > *ordu* > *ordā* [ЎТЭЛ (I), 486]. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ikki xil ma‘nosi izohlangan:

- 1) turkiy va mo‘g‘ul xalqlarida hukmdor, xon qarorgohi, qal’a;
- 2) qo‘shin qarorgohi, lashkargoh.

Mahmud Qoshg‘ariy “Devon”ida ushbu leksemaning 5 xil izohi keltiriladi:

ordu – shoh turadigan shahar; o‘rda. Shuning uchun qashqarni *Ordukānd* deydi, ya‘ni shohlar turuvchi shahar demakdir;

ordu – Balasog‘un yaqinidagi bir shahar; shuning uchun

Balasog'unni *quz ordu* ham deyiladi;

ordu – *ordu bashi* – shohlar xizmatidagilarning nomi;

ordu – sichqon, kalamush kabi yer ostida yashovchi hayvonlarning ini;

ordu: *ordu tal* – mo'yin tushirish uchun hammomda ishlatiladigan aralashma; ohak [ДЛТ (I), 145]. **Xon o'rdasining mutavaffo mirzolaridan bittasining madrasada o'qub yurg'an o'g'li bor edi...** (11). Asarda o'rda terminining faqat "hukmdorning qarorgohi" semasi keltirilgan. Demak, o'z qatlamga tegishli ushbu so'z ma'no torayishiga uchragan.

Poytaxt – bu ot fors-tojik tilida *poy* otini "ost" ma'nosi bilan "hukmdor qabul marosimida o'tirishi uchun saroy to'riga o'rnatilgan, maxsus bezatib ishlangan hashamatli o'rindiqlar" ma'nosini anglatadigan *taxt* otidan shakllangan bo'lib, "davlatning bosh shahri, mamlakatning ma'muriy-siyosiy va madaniy markazi" [ЎТИЛ (III), 288], "markaz" [АНАТИЛ (II), 579] ma'nosini anglatadi. Bu ot asli [pay-e-taxt] shakliga ega bo'lib, izofa birikmaga teng [ЎТЭЛ (III), 194]. **Poytaxt** bo'sag'asidagi doimiy yasovullardan o'tib, dahlizda to'xtadi (303).

Fors-tojikcha "karvon, savdogarlar to'xtab, dam oladigan keng hovli" [ЎТЭЛ (III), 208] degan mazmunni ifodalovchi **saroy** istilohining quyidagi semalari mavjud:

a) tar. xon, amir, podshohlarning doimiy qarorgohi bo'lib xizmat qilgan hashamatli katta bino; koshona;

b) ko'chma. Saroydagi davlat boshqaruvi; hokimiyat, saltanat;

d) ko'chma. Saroyga aloqador, saroyda yashovchi, xizmat qiluvchi; umuman, istiqomat qilish yoki ijtimoiy faoliyat uchun mo'ljallab, zamonaviy me'morlik uslublarida qurilgan hashamatli katta bino va majmualar;

e) karvonlar, savdogarlar qo'nadigan, mehmonxonali, hovli va otxonali joy; karvonsaroy, rabot;

f) omborxona, ombor;

g) bostirma yoki to'rt devor bilan o'ralgan keng bino [ЎТИЛ (III), 452].

Amir Umarxon oxir umrida o'z saroyidagi yosh kanizlardan biriga muhabbat qo'yadir (7). Asarda saroy istilohining "xonning qarorgohi", "hokimiyat", "saroyda yashash" semalarini uchratish mumkin, lekin so'z izohidagi keyingi semalar til taraqqiyoti natijasida shakllangan.

Devonxona fors tilidan o'zlashgan "davlat idorasi", "sud mahkamasi" [ЎТИЛ (I), 587] ma'nosini anglatuvchi "*devon*" so'ziga yana bir forscha "*xona*" o'zlashma so'zi qo'shilib kompozitsiya

usuli bilan hosil qilingan. Xonliklar davridagi davlat idoraxonasiga nisbatan qo'llanilgan istilohdir: *Eng so'ngg'a qolib qo'zg'alg'an Anvar devonxona dahlizida tunqotarg'a uchrashdi* (238). Hozirgi adabiy til leksikonida “Prezident devonxonasi” degan tushuncha mavjud bo'lib, bu leksema davlat boshqaruvi bilan bog'liq semasini o'zida saqlab qolgan.

v) davlat hujjatlarini ifodalovchi terminlar: *ariza, yorliq, noma, farmon, amr;*

Ariza arabcha “ro'y berdi” ma'nosini anglatuvchi ‘arada fe’lining “taqdim etdi” [ЎТЭЛ (II), 40] ma'nosidan hosil qilingan bo'lib, muayyan muassasa yoki mansabdor shaxs nomiga yozilgan iltimos, taklif, shikoyat mazmunidagi rasmiy hujjat” [ЎТИЛ (I), 97] mazmunini bildiradi. Eski o'zbek tili davrida “arz” shaklida ishlatilgan bo'lib, izhor, bayon, murojaat, istak, iltimos, shikoyat; ko'rsatish, namoyish etish, havola qilish [АНАТИЛ (I), 108] kabi semantik maydoni keng bo'lgan. *Hatto janobg'a bir ariza kirgizib, menim nomzadim yanglish ko'rsatilibdir...* (26). Shuningdek, asarda ariza termini rasmiy hujjat maqomidan tashqari maktub, xat yozdirish mazmunini ham ifodalaydi: **Ariza** yozdirishqa chaqa kerak bo'ladi, uka. Chaqangiz bo'lmasa, ovoragarchilikka arzimaydi, inim... (162).

Asarda **amr, buyruq, farmon** terminlari o'zaro sinonimik paradigmani hosil qilgan, lekin asarda ushbu atamalar semantik, pragmatik jihatdan qo'llanilishiga ko'ra farq qiladi. **Amr** arabcha “buyruq berdi” ma'nosini anglatuvchi ‘amara fe’lidan [ЎТЭЛ (II), 33] hosil qilingan bo'lib, “buyruq, yo'l-yo'riq” [ЎТИЛ (I), 80] semasini anglatadi. **Amrimizga inqiyod etib devonbegi unvon digar sadri munshiylik umuri vazoyifalarimizni kama yanbag'i ado qilg'ay deb** (89).

Farmon – bu ot “buyur” ma'nosini anglatadigan tojikcha *farmudan* fe'lining *farmo* hozirgi zamon asosiga –n qo'shimchasini qo'shib [ЎТЭЛ (III), 232], biror ishning bajarilishi haqida beriladigan buyruq, hukm, topshiriq, amr [ЎТИЛ (I), 330] ma'nosini anglatgan. Ushbu so'zning -*farmo* qismi *farmudan* – “buyurmoq” fe'lining hozirgi zamon negizidir. Yuqoridagi parchada ishlatilgan *farmon* so'zida ham ushbu o'zak mavjud. *Farmon* pahlaviy tilida *frāmān*, qadimgi eroniy tilda *framānā* bo'lgan. *Farmon* so'zi arab tiliga ham o'zlashgan bo'lib, uning ko'plik shakli *faromindir* [Носиров, Юсупов 203, 622]. *Farmon* ijrosi, unga bo'ysunish azaldan majburiy hisoblangan [Ўпазбоев 2018, 119]: *Bu ixtiyoriy ravishdagi hozirlikdan so'ng, “mamlakatimdagi har bir xonadon bitta ketman va bitta mardikor bersin!” – deb istisnosiz umumiy bir farmon ham bo'ldi*

(125). **Buyruq** – bu ot “farmon qil” ma’nosini anglatuvchi asli turkiycha *buyur*- fe’lidan o’zbek tilida *-(u)q* qo’shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik ikkinchi bo’g’indagi tor unli talaffuz qilinmay qo’ygan: *buyur + uq = buyuruq > buyruq* [ЎТЭЛ (I), 66]. Tashkilot, muassasa, korxona, harbiy qism va sh.k. boshlig’i, rahbarining o’z tasarrufidagi tashkilot, muassasa, korxona bo’yicha chiqaradigan rasmiy farmoyishi, amri va shunday farmoyish matni yozilgan qog’oz; rasmiy hujjat; og’zaki yoki yozma topshiriq, amr, farmon [ЎТИЛ (I), 366]. Navoiy asarlari tilida fe’lning *buyur, buyurul* [АНАТИЛ (I), 342] aniq va majhul nisbat shaklida uchrab, “hukm qilinmoq”, “amr etilmoq”, “farmon bermoq” kabi ma’nolarda ishlatilgan. Ushbu sinonimik qatordagi amr, farmon terminlari, asosan, rasmiy doiralarda, rasmiy hujjatlarda ishlatilgan bo’lsa, *buyruq* so’zi oddiy xalq tilida kundalik so’zlashuv uslubida ko’proq foydalanilgan: *Biz kaminalarda nima gap, aylanay oyi xonim... Biz, harna qilsaq, onhazratimning buyruqlari bilan qilamiz* (138).

Yorliq – bu so’z qadimgi turkiy tildagi “xabar” ma’nosini anglatgan *yar* otidan [ЭТЯ (IV), 18] *-lyg’* qo’shimchasi bilan yasalgan, keyinroq *g’* undoshi *q* undoshiga almashgan; o’zbek tilida *a* unlisi *â* unlisiga almashgan *ы* unlisining qattqlik belgisi yo’qolgan: *yar+lyg’ = yarlyg’ > yarlyq > yârliq* [ЎТЭЛ (I), 172] tarzida o’zgarib, “vakolatli hujjat”, “biror narsa haqida ma’lumot beruvchi hujjat” mazmunini beradi: *O’rdadag’i ishonchlik kishilarning so’zlariga qarag’anda, yorlig’ sizning otingizg’a bo’lar emish* (41). Hozirgi kunda ushbu leksema ma’no kengayishiga uchragan bo’lib, belgi, nishon kabi semalarni ham ifodalaydi.

Noma – fors-tojik tilida “xat”, “maktub” degan ma’noni bildirib, xonliklar davri ijtimoiy-siyosiy doirada rasmiy yozishma, maktub [ЎТИЛ (III), 53] tarzida ishlatilgan: — *Shunday, — dedi Anvar, — lekin ba’zi vaqt viloyatlarga oshig’ich yuboriladig’an noma va farmonlar chiqib qoladir* (35). Noma termini, asosan, rasmiy doiradagi hujjatni ifodalaydi. Shuningdek, asar tilida nomaning turli shakllari uchraydi va ular har xil funksiyani bajargan: **sabnoma, afvnoma, dodnoma, fatvonoma**.

Sabnoma — so’kib, tahqir qilib yozilg’an xat mazmunini bergan: *Sultonali o’rdag’a yugurib kelgan; voqi’ani tunqotarg’a so’zlab, tunqotar xong’a yo’liqib, xonning buyrug’i bilan yonlarig’a yasovullar olib kelsalar, oshiq-ma’shuq yo’q, ular joyida Sultonliga atalg’an bir sabnoma bor...* (272).

Afvnoma – arabcha *afv* so’zi asosida shakllangan leksema, “kechirish”, “gunohidan o’tish”, “uzrini qabul qilish” [АНАТИЛ (I),

136] degan ma’noni bildirib, kechirim yoki uzr so’rab yozilgan maktub shakli: *Toshkandda turishining uchunchi yillarida Xudoyordan bir afvnoma olib, qashshoqliq jonig’a tekkan mirzo Anvar, o’ylab turmay, Ra’no bilan Qo’qong’a qaytqan (312).*

Dodnoma so’zi asosidagi *dod* so’zini etimologik jihatdan ikki xil talqin qilish mumkin: 1) *dod* tojikcha ot bo’lib, “adolat”, “haq”, “qasos”, “yordam so’rab qichqirish” [ЎТЭЛ (III), 90] ma’nolarini bildirsa; 2) *dod* – undov so’z bo’lib, ruhiy va jismoniy azobga chiday olmay qichqirilgan qattiq tovush. Dodnoma – adolatsizlik yoki azob-uqubatdan nolib qilingan arz, shikoyat yozilgan xat mazmunida qo’llanilgan: *Lekin Anvar ta’mani, shaytanatni, adovatni ayniqsa, xufiyalikni bilmas, devonda o’ziga topshirilg’an vazifanigina ado qilar, alalxusus mazlumlar dodnomasini xong’a eshitdirishka va yaxshi natijalantirishka tirishar edi (65).*

Fatvnoma so’zining asosi arabcha *fatia* fe’lining “qaror qildi” ma’nosi bilan hosil qilingan I bob masdari bo’lib [APC, 582], arab tilida “muftiy chiqargan qaror” ma’nosini [ЎТЭЛ (II), 463], Navoiy asarlarida “diniy qonun yuzasidan biror masala yoki da’voning to’g’ri yoki noto’g’riligi, halol-haromligi haqida berilgan yozma yoki og’zaki fikr”; “ijozat”, “ruxsat” [АНАТИЛ (III), 335] ma’nolarini bildirsa, hozirgi o’zbek adabiy tilida “shariat, din qonun-qoidalari asosida ruhoniylar tomonidan biror diniy, huquqiy, siyosiy hamda ijtimoiy masala yuzasidan chiqariladigan hukm, qaror, izoh yoki biror ishning shariat nuqtayi nazaridan amalga oshirish mumkinligi haqidagi ko’rsatma, buyruq” [ЎТИЛ (IV), 335], hisoblanib, shunday mazmundagi diniy hukm haqidagi maktub: *Vallohi a’lam bissavob” deb fatvonomani “binni mufti marhum”, “binni mudarris marhum”, “binni Ho’qandiy marhum” – muhri bahaybatlari bilan qalashdirib beradirlar va Madalixon to’y va tomoshalar bilan murod-maqsadig’a yetadir...(8).* Asarda davlat hujjatlari nomlarini tahlil qilarkanmiz, o’z va o’zlashma qatlamdan ham keng foydalanilgan. Asar tiliga xos noma terminining turli shakllari uchraydi va ushbu so’zlar pragmatik jihatdan turli vazifalarni bajargan.

2. Ijtimoiy qatlam, kasb-hunarni bildiruvchi leksik birliklar.

Badiiy asar tilida ijtimoiy qatlamni bildiruvchi so’zlar salmoqli hisoblanadi. Ijtimoiy-siyosiy birlashmalarni ifodalashda *xalq*, *xaloyiq*, *omma*, *sinf*, *tabaqa*, *el*, *yurt* istilohlaridan foydalanilgan. Ijtimoiy-siyosiy leksikaning rivojlanishini ko’rsatib beruvchi omillar ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning nomlanishi, adabiy tilda qo’llanishi,

so'zlashuv tiliga o'tishi, millat tomonidan o'zlashtirilishi [Исакова 2010, 8] natijasida yuzaga keladi. Asardagi ijtimoiy-siyosiy qatlamni ifodalovchi birliklarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratdik:

a) yuqori mansab-martabani ifodalovchi terminlar:

hokim, mingboshi, qushbegi, qo'rboshi, otaliq, munshiy, sarmunshiy, dahboshi, mirzaboshi, shog'ovul, devonbegi, hokim, oftobachi, tunqator, dasturxonchi, xudaychi;

Mirzaboshi – o'zbek xonliklarida (asosan, Qo'qon xonligida) mirzaxona boshlig'ini anglatgan. Ushbu terminning etimologiyasini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu qo'shma so'z tarkibidagi *mirzo* so'zi asli arabcha *amir* so'zi bilan tojikcha "o'g'il" ma'nosini anglatuvchi *zoda* so'zini qo'shib tuzilgan bo'lib [ТЖРС, 156, 230], keyinchalik so'z boshlanishidagi *a* unlisi va so'z oxirida *da* tovushlari talaffuz qilinmay qo'ygan: *amirzoda* -> *mirza* -> *mirzo* [ЎТЭЛ (II), 270] tarzida o'zgargan. XV asrda "amirzoda", "shahzoda"; "kotib, mirza" [АНАТИЛ (II), 308] ma'nolari bilan birga *mirzoda* shakli ham qo'llanilgan. Mirzo so'ziga turkiycha bosh so'zining qo'shiluvi natijasida mirzaboshi qo'shma so'zi hosil bo'lgan.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da mirzo leksemasining uch xil izohi keltirilgan:

- 1) yozuv-chizuv ishlarini olib borgan lavozimli kishi; kotib;
- 2) savodli, o'qimishli yosh kishilarga hurmat bilan murojaat qilish shakli;
- 3) yuqori tabaqalarga mansub kishi; janob [ЎТИЛ (II), 599].

Asardagi mirzo istilohi dastlabki ikki semani ifodalagan: *Devonda rasmiy mirzo bo'lishning uchinchi yilida Anvar juda katta e'tibor qozong'an edi (63). Demak, mirzo Anvarni ko'ndirish vazifasi odobsizliq bo'lsa ham sizga qoldi-da, taqsir? (29).* Birinchi gapda keltirilgan mirzo leksemasi saroyda xizmat qiluvchi, yozuv-chizuv ishlari bilan shug'ullanuvchi xodim semasini bildirsa, ikkinchi gapda murojaat shakl mazmunini ifodalaydi. Yuqori tabaqalarga mansub kishi semasi mirzaboshi termini orqali qo'llangan: *O'z farzandimizdek yigitsiz, sizning mirzoboshi ta'yinlanishingiz bizga ayni muddao, — dedi (46).*

Shig'ovul/shag'ovul – Buxoro va Xiva xonliklarida elchilarni kutib olish, ularni xon huzuriga olib kirish, saroydagi qabul marosimlarini boshqarish va nazorat qilish bilan shug'ullangan mansabdor shaxs [ЎТИЛ (IV), 586]. Shig'ovullarning faoliyati «buxrilar» (ayg'oqchilar) faoliyati bilan yaqindan bog'liq bo'lgan. Shig'ovullar mustaqil ravishda diplomatik muzokaralar olib borishmagan [qomus.info.encyclopedia.shigovul-uz]. Diaxron nuqtayi nazardan eski

o'zbek tilida *-vul* (*-v+ul*) affiksi ishtirokida bir qancha leksemalar yasalgan. Alisher Navoiy uqtirishicha, *-vul* affiksi harbiy va saroy xizmatchilari lavozimiga ega bo'lgan shaxslarni ifodalovchi leksemalarni hosil qiladi: *...Salotinning xoh razm asbobi uchun va xoh bazm jihati uchun mu'tabardur, andoqki, ... va qorovul va so'zovul va patovul va kitnovul va yasovul va bakovul va shig'ovul va daqavulkim, alar mundin ulviydurlar* [Мўминова 2009, 87]. H.Dadaboyev *-vul* affiksining etimologiyasini mo'g'ul tiliga bog'laydi va qadimgi eski turkiy tilda uchramasligi, mazkur affiks eski o'zbek tilida, asosan, harbiy terminlarni shakllantiruvchi qo'shimcha sifatida keltiradi [Дадабоев 1990, 75]. Qo'qon xonligida elchilar va choparlarni xon huzuriga boshlab kiruvchi mansab egasiga nisbatan ushbu istiloh ishlatilgan. Asarda shig'ovul, shag'ovul emas, fonetik o'zgarishga uchragan *shog'obul/shog'ovul* shakllarida uchraydi: *Domla Burhon maxdumning bo'lsa, shog'obul domla bilan oralari buzuq; agar xon yorlig'ni uning ismiga buyurg'anda ham shog'ovul domla yozmas edi* (108).

Tunqator – “tungi qorovul”, “soqchi” [ЎТЯЛ (IV), 192], “podshoh turgan joyning tun qoravuli” [НАЛ, 616], ya'ni tonggacha uyg'oq soqchi degan mazmunni bildirib, xonning istirohati va yurishlari vaqtida muhofazat qilardi. Xonga yaqin kishilardan tayinlanardi [Shodmonov 2019]. *Tarbuzi qo'ltug'idan tushkan tunqotar yasovullarning oldig'a tushib, tars-turs ko'chaga chiqdi* (270).

Dasturxonchi – to'y, katta ziyofat va boshqa marosimlarda dasturxon tayyorlash va kelgan-ketganlarni kutish uchun belgilangan ayol yoki erkak kishi. O'tmishda amir, xon va beklar saroyida saroy ahllariga beriladigan ovqatlarni tayyorlatish va mehmon kutish bilan shug'ullangan lavozimli kishi [ЎТЯЛ (I), 574]. Ushbu termin etimologiyasiga ko'ra, tojikcha *dast* otiga *-or* qo'shimchasini qo'shib [ТЖРС, 543] *dastar* oti yasalgan bo'lib, asli “tuzilgan”, “tartib toptirilgan” ma'nosini anglatgan. *Dastarxon* otining *xon* qismi *xvan* [*xan*] tarzida yozilib, “ustiga iste'mol qilinadigan ovqat qo'yiladigan mato” ma'nosini anglatadi. *Dastarxon* oti “taom bilan to'ldirilgan maxsus mato” ma'nosini bildirib [ЎТЭЛ (III), 82], ushbu otga o'zbek tilidagi *-chi* so'z yasovchi affiksi qo'shib, shaxs oti yasagan: *Janobning xursand bo'lishlarida shubha yo'q, taqsir, — dedi dasturxonchi va boshqa so'zga yo'l qo'ymay hatto keyingi masalalarga ham kelib yetdi* (229).

Qodiriy asarda saroy muhitini, uning voqealar rivojini ochib berishda, ijtimoiy-siyosiy termin hisoblanuvchi mansab-martaba bildiruvchi leksemalardan unumli foydalangan. XX asr badiiy tilida

ijtimoiy-siyosiy leksikasi shakllanishida turli tillar asosidagi derivatsion usul yetakchilik qilganini xulosalashimiz mumkin.

b) diniy unvon va martabani anglatuvchi istilohlar: *ulamo, imom, mufti, qozi, qozikalon, peshvo, a'lam, otinbibi, eshon, so'fi, shayxislom, domla, mullabachcha.*

Ulam arabcha so'z *'alima* fe'lining "bildi", "bilimli bo'ldi" ma'nosidan yasalgan *'âlim(un)* asliy sifatining ko'plik shakli bo'lib [APC, 534], asli "olimlar" ma'nosini anglatadi. Ko'plik shakli ekanligi unutilgani sababli "diniy ilmlarni mukammal biladigan olim" ma'nosini anglatish uchun ishlatiladi, ko'plik ma'nosini ifodalash uchun *-lar* qo'shimchasi qo'shiladi [ЎТЭЛ (II), 452]. Islom ilohiyotchilari va huquqshunos (faqih)lari, shuningdek, diniy muassasalarga, sud (qozilik) mahkamalariga, o'quv yurtlariga mutasaddi bo'lgan barcha islom dini olimlari [ЎТИЛ (IV), 277]. Navoiy asarlarida ham "olimlar", "bilimdonlar" [HAЛ, 623] tarzida keltirilgan. *Madalixong'a fatvo yozib bergan Qo'qon ulamolaridan bir nechalari had uruldilar va bir nechalari qochib qutuldilar (9).* Bu so'zdan o'zbek tilida ulamolik mavhum oti yasalgan.

Otin/otinbibi – tarixga ko'ra eski maktablarda qizlar o'qituvchisi; din va shariat bilimdoni; uyida maktab ochgan ayol ma'nosini anglatga, diniy nuqtayi nazardan ayollar o'rtasida diniy marosimlarga boshchilik qiladigan ayol [ЎТИЛ (III), 155]. Shuningdek, har qanday o'qituvchi, o'qimishli ayolga nisbatan ham ushbu istiloh qo'llanilgan. Asli ushbu ot fors-tojikcha **otun** shaklidan olingan bo'lib, o'zbek tiliga *u* tovushini *i* tovushiga almashtirib olingan; "o'qimishli ayol", "muallima" [ЎТЭЛ (III), 174] ma'nosini anglatgan. *Oz va ma'noliq qilib so'zlar, xotinlar bilan muomalasini boshqa otinbibilardek yuqoridan turib qilmas, soddacha suhbatlashar edi (20).* Asarda ushbu istiloh maktabda qizlarga ilm berish vazifasidan kelib chiqib Nigorxonimga nisbatan ishlatilgan.

Eshon – eshon, pir so'zining ma'nodoshi [Ўразбоев 2018, 51] bo'lib, bu birlik asli bir kishiga qarata hurmat qo'rsatib aytiladigan "ular" [ЎТЭЛ (III), 269] kishilik olmoshi bo'lib, dindorlar, jamiyat orasida ma'lum obro' qozongan ruhoniy, din peshvosi [ЎТИЛ (V), 66]ga nisbatan qo'llaniladigan istiloh: *Maxdum G'oz* **eshon** *to'g'risida har bir so'zni aytishdan tortinib turmadi (168).*

Shayxulislom – oliy ruhoniy unvoni bo'lib, ikki komponentdan iborat qo'shma so'z bo'lib, *shayx+islom* konstruksiyasidan hosil bo'lgan. Ushbu birliklarni etimologik-lingvistik jihatga ko'ra tahlil qiladigan bo'lsak, shayx arabcha so'z *sayx(un)* shakliga ega; ko'p ma'noli *ṣāḫa* fe'lining "keksaydi" ma'nosi bilan hosil qilingan [ЎТЭЛ

(II), 496] bo'lib, "qariya", "keksa", "urug', qabila boshlig'i", "diniy rahbar", "olim", "murabbiy" kabi semalarni anglatadi. Navoiy asarlarida: 1) qari, mo'ysafid; 2) tasavvuf yo'lining boshlig'i, taqvodor, xudojo'y; 3) mulla, imom [АНАТИЛ (III), 493] ma'nolari keltirilgan. Islom dini tarqalgan mamlakatlarda, avvalo, bilimdon kishilarga, so'ngra ulamo va faqihlarga berilgan nom, keyinchalik muqaddas joylarning mutasaddilari ham shayx deb yuritilgan [ЎТИЛ (IV), 535]. Islom termini asli arabcha *salima* fe'lining "bo'ysundi", "bosh egdi" ma'nosini anglatuvchi IV bob shakli *islama* [APC, 370] fe'lidano hosil qilingan masdari bo'lib, arab tilida "Olohga itoat qilish", "musulmon bo'lish", *al* artikli bilan ishlatilganida esa "islom dini" ma'nosini anglatadi [ЎТЭЛ (II), 175]. Shayxislom so'zi ayni keltirilgan so'zlar kompozitsiyasidan shakllanib, "islom dini shayxi", "diniy qonunlarni sharxlovchi" degan mazmunni bildirib, musulmon ruhoniylari boshlig'ining unvoni, oliy diniy unvon hamda shu unvonga ega kishi, bosh ruhoniy [ЎТИЛ (IV), 535]: *Xon yonidag'i haqiqiy shayxulislom esa qip-qizarg'an va har on "tavba" deb qo'yar edi* (185).

v) ziyoli qatlamni bildiruvchi so'zlar: *muallim, maktabdor domla, mudarris, mukarrir, mahdum, ustoz, shogird, xalfalik;*

Muallim so'zi arabcha *'alima* fe'lining "o'qitdi", "o'rgatdi" ma'nosini anglatuvchi II bob *'allama* shaklidan hosil qilingan aniq nisbat sifatdoshi bo'lib, [ЎТЭЛ (II), 277] dars beruvchi, ta'lim beruvchi, o'qituvchi [ЎТИЛ (II), 622], "ilm o'rgatuvchi" [АНАТИЛ (II), 324] ma'nosini bildirib, asardagi ustoz, maktabdor domla leksemalari bilan sinonimlikni hosil qiladi. **Ustoz** termini ham "kasb-hunar ilm o'rgatuvchi", "yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi", "rahnamo" [ЎТИЛ (IV), 303] semalarini bildirib, fors-tojik tilidan o'zlashgan leksema. *Qo'qon aksariyatining savodxon bo'lishlarig'a sababchi ustozlardan, hatto ulug' xizmatlarga kishi etishdirib berguchi nodir muallimlardan edi* (18).

Mudarris "madrasada dars beruvchi kishi", "madrasa o'qituvchisi" [ЎТИЛ (II), 626]ga nisbatan qo'llaniladigan leksema bo'lib, arab tilida *darasa* [APC, 251] fe'lining II bob sifatdoshidan [ЎТЭЛ (II), 280] shakllangan. "Madrasada amaliy mashg'ulot olib boruvchi muallim" [ЎТИЛ (II), 632]lar esa **mukarrir** termini bilan keltirilgan. *Ularning ziyofatlari vositasida ba'zi madrasalarning mudarrisleri, mukarrirlari bilan ham tanishdi* (85).

Xalfalik termini *xalfa* so'ziga *-lik* faoliyat-jarayon otini morfologik usul bilan qo'shish orqali hosil qilingan. Xalfa arabcha "bir-birining ortidan borish", "ergashish", "o'rin almashish" degan ma'noni bildirib, 3 xil semasi mavjud:

1) shariat qonun-qoidalarini yaxshi biladigan, o'qimishli

odam;

- 2) eski maktabda o'quvchilarga boshliq qilib tayinlangan, maktabdor domlaga ko'maklashadigan o'quvchi;
- 3) o'rta asrlar ustaxonalarida hunar o'rganuvchi shogird; hunar-kasb o'rganuvchi shogirdlar boshlig'i [ЎТИЛ (IV), 381].

Asarda ushbu istiloh "maktabdor domlaga ko'makchi shogird" semasida keltirilgan: *O'n uch yoshida maktab pro'g'rammasini bitirib, yosh bo'lsa ham xalfalik, ya'ni domlag'a ko'makchilik qila boshladi (52).*

e) saroy xizmatchilari nomlari: *jarchi, doya, qul, xizmatchi, charoqchi, qoravul, yasovul, soqchi, haram xodimasi, haram dallasi, cho'ri, kaniz.*

Jarchi so'zining asosi arabcha "baland ovoz bilan, hammaga eshittirib aytdi" ma'nosini anglatuvchi *çahara* [APC, 145] fe'lining IV bob masdari bo'lib, arab tilida "oshkora", "oshkoralik" [ЎТЭЛ (II), 123] ma'nolarini, o'zbek tilida "baland ovoz bilan ochiq e'lon qilish" [ЎТИЛ (II), 73] ma'nosini bildiradi. Ushbu o'zlashma so'zga shaxs oti yasovchi *-chi* qo'shimchasini qo'shish orqali jarchi shaxs oti yasalgan, tarixga ko'ra, odamlar ko'p to'planadigan joylarda baland ovoz bilan rasmiy e'lonlar eshittirib yuruvchi shaxslarga [ЎТИЛ (II), 75] nisbatan bu istiloh keltirilgan: *Yorlig'olg'aningizni xabar qilish uchun shaharga hozir jarchi chiqar (93).*

Doya forscha "boquvchi", "parvarishlovchi", "enaga" [ЎТИЛ (II), 650] ma'nolarini bildirib, asarda ushbu so'zning ikki xil semasi uchraydi:

1) to'lg'oqdagi ayollarni tug'diruvchi xotin, enaga, akusherka: *Onasi o'z yonig'a doya chaqirib takallufplanmadi, to'ng'uch qizi Nodiraning ko'magida tug'di (47);*

2) go'daklarni tarbiyalovchi, saroy xizmatidagi ayol: *Bu havlida xonning suyuqli xotinlari o'zlariga xos doya, chevar, kanizlar va qullari bilan turar edilar (140).*

Haram dallasi – dalla so'zi arabcha so'z asli *dallâlat(un)* shakliga ega bo'lib, *dallâl(un)* masdarining *-at(un)* qo'shimchasi bilan hosil qilingan muannas shakliga teng; o'zbek tiliga so'z oxiridagi *t* tovushini, shuningdek, ikkinchi bo'g'inni hosil etib turgan *lâ* tovushlarini tashlab qabul qilingan, shu usul bilan o'ta salbiy ma'noli so'z dallol so'zidan farqlangan: *dallâlat -> dallâla -> dalla (dalla)* [ЎТЭЛ (III), 102]; "qo'shmachilik bilan shug'ullanuvchi ayol" [ЎТИЛ (I), 549]. Asarda haram dallasi termini xon haramiga qizlar haqida xabar beruvchi, qizlarni olib keluvchi ayollarga nisbatan ishlatilgan:

*"Gulshan" so'zi bir xotinning ismi bo'lib, bu xotin xong'a chiroylik qizlar topib berguchi **haram dallasidir** (215).*

Qul tarixga ko'ra ekspluatatorlik jamiyatining ilk davrlarida xususiy mulk, mol qatori olib sotilgan, butunlay xo'jayinga qaram bo'lgan, hech qanday haq-huquq va mol-mulkka ega bo'lmagan xizmatkor. Ko'chma ma'noda esa ko'r-ko'rona xizmat qiluvchi, bo'ysunuvchi, itoatgo'y, malay, xizmatkor [ЎТИЛ (V), 368]. **Xodima** va **cho'ri** istilohlari "qul xotin", "tutqinlikdagi ayol", "xizmatkor xotin", "oqsoq" [ЎТИЛ (V), 526] semalarini beruvchi atama hisoblan-sa-da, asardan olingan ushbu jumlada cho'ri termini dastlab "kamina", "xizmatdagi odam" semasini bersa, keyingi ma'nosi "tutqin ayol", "xizmatkor" semalarini ifodalagan: **Cho'ringiz** so'z ulashdirishni yomon ko'radir, oyi xonim. Botirboshi xola, yana bir nechalar va atrofdagi beklarimizning tavajjuhlari soyasida sayidning haramlari uchto'rt yilning ichida bunchalik **cho'rilar** ega bo'ldi... (137).

Xizmatkor *xizmat* + *-kor* morfologik usuli bilan hosil qilingan yasama so'zdir. Etimologik jihatdan asli arabcha *xidmat(un)* shakliga ega bo'lib, o'zbek tiliga *ḍ* undoshini *z* undoshiga almashtirib qabul qilingan: *xidmat* -> *xizmat*; *xadama* fe'lining "mehnat faoliyatini ado etdi" ma'nosi bilan hosil qilingan I bob masdari bo'lib, "mehnat", "faoliyat" [ЎТЭЛ (II), 483] ma'nosini anglatadi. Xizmat so'ziga tojikcha *-kor* qo'shimchasi bilan yasali, "birovning shaxsiy xizmatini, uy ishini qiluvchi kishi" mazmunida ishlatiladi. Asarda qul, cho'ri, xodima, xizmatkor leksemalari pragmatik jihatdan bir semani ifodalaydi, lekin gender jihatdan farqlanadi. **Kaniz** forscha cho'ri, xizmatchi, oqsoch xotin ma'nolarini ifodalab, 2 xil mazmunni ifodalaydi: 1) tutqin ayol, cho'ri; 2) xon, amir, boshqa hukmdorlar saroyidagi xizmatchi ayol [ЎТИЛ (II), 314]. Asarda ikki xil sema shaklini ham kuzatishimiz mumkin:

Yasovul so'zi tarixga ko'ra O'rta Osiyo xonliklari davrida yuqori mansabdagi amaldorlarga xizmat qiluvchi qurolli soqchi, posbon [ЎТИЛ (V), 122] degan mazmunni beradi. Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida: "...yasovul, bir mazlum ishi keyincha borg'ay va ul mazlumni zolimdin qutqorg'ay" [Навоий 1998, 15] deb ta'riflaydi. Atama yasov "saf", "qator" ma'nosini anglatuvchi so'zga shaxs oti yasovchi *-vul* qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan: *Birinchi darbozaning ikki biqinida turg'uchi qorovul yigitlar o'rdaning ulug' darajalik beklarini ta'zim bilan uzatar, mansabi quyiyoq yasovullar bilan mutoyaba qilishib qolar edilar* (129). **Soqchi** – muayyan joyni, hududni muhofaza qiluvchi qurollangan qo'riqchi, posbon [ЎТИЛ (III), 562] ma'nosini bildirib, xon saroyini qo'riqlovchi shaxsdir.

Qorovul leksemasi ham ayni shu semani ifodalaydi.

f) san'atkor nomlari: *nog'orachi, surnaychi, qiziqchi, askiya-chi, o'yinchi, sozanda, novazanda, san'atkor;*

San'atkor arabcha ko'p ma'noli *šana'a* fe'lining "bezadi" ma'nosi bilan hosil qilingan I bob masdari bo'lib, arab tilida "mehnat", "hunar", "badiiy ijod" [ЎТЭЛ (II), 377] ma'nolarini anglatadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da quyidagi semalari keltirilgan:

ijtimoiy madaniyatning estetik zavq beruvchi, musiqa, musavvirlik, haykaltaroshlik kabi voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettiruvchi har bir soha;

a) turli amaliy-tatbiqiy sohalarning o'ziga xos ish uslubi, sistemasi;

b) ko'chma. Muayyan faoliyat sohasidagi yuksak mahorat, ustalik; iste'dod;

d) adabiyotshunoslikda: badiiy asar poetikasini ta'minlovchi vosita.

San'at (xotin-qizlar va erkaklar ismi) [ЎТИЛ (III), 443].

San'at so'ziga fors-tojikcha *-kor* shaxs oti yasovchi qo'shimcha qo'shilib, san'atning biror sohasini egallagan ijodkor mazmunini ifodalaydi. Asarda ushbu so'z o'z ishining ustasi, yuksak mahorat egasi semasida kelgan: *...o'yunga, sozg'a, ashulaga ta'lim olib kelarlilar va shuning uchun har birlari o'z hunarlarida yaxshi san'atkor bo'lg'an edilar (147).*

Surnaychi shaxs oti *surnay* narsa-buyum otiga *-chi* shaxs oti yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida yasalma shakllangan. Surnay "hayvon shohi", "muguz", "karnay" ma'nolarini anglatadigan arabcha *sur* oti bilan "sibizga" ma'nosini anglatadigan fors-tojikcha *nay* otidan tuzilgan bo'lib, [ЎТЭЛ (III), 218] teshiklarini barmoqlar bilan ochib-yopib, puflab chalinadigan musiqa asbobi [ЎТИЛ (III), 594].

Nog'ora arabcha so'z *naqqârat(un)* shakliga ega o'zbek tiliga birinchi bo'g'indagi *a* unlisini va ikkinchi bo'g'indagi cho'ziq *â* unlisini *â* unliga, *qq* undoshlarini *g'* undoshiga almashtirib, so'z oxiridagi *t* tovushini tashlab qabul qilingan: *naqqârat* -> *nâg'âra (nog'ora)*. Bu so'z asli *naqqâr* otdan *-at(un)* qo'shimchasi bilan yasalgan bo'lib [ЎТЭЛ (II), 331], tuvaksimon sopolga teri qoplab yasalgan va ikkita cho'p bilan urib chalinadigan bir juft musiqa asbobi [ЎТИЛ (III), 65] hisoblanadi. Nog'ora otiga *-chi* shaxs ot yasovchi qo'shimcha qo'shilib, nog'ora chaluvchi ma'nosini anglatuvchi *nog'orachi* leksemasi yasalgan: *Bola tilab olinsa, so'yinch-quvonch, novorachi-surnaychi* va *shunga o'xshash cho'zma-chalpak, is-charog' marosimlari*

nuqsonsiz ijro etiladir (46).

Sozanda fors-tojikcha “quruvchi”, “yaratuvchi”, “cholg’uchi” [ЎТИЛ (III), 544] ma’nolarini bildirib, yasama soʻz asosi “soz” tor, musiqa asbobi nomiga, fors-tojik tilidagi *–anda* hozirgi zamon sifatdoshidan shakllangan. milliy musiqa asboblaridan birida mashq qiluvchi musiqachi; mashshoq, navozanda. **Navozanda** esa kuy ijro qiluvchi, navo qiluvchi boʻlib, ikkala soʻz bir-biriga sinonim. Ushbu termin asli fors-tojikcha “kuy chal” ma’nosini anglatuvchi *navoxtan* fe’lining *navoz* hozirgi zamon asosiga *–anda* hozirgi zamon sifatdoshi [ЎТЭЛ (III), 147] qoʻshilib hosil qilingan.

O’yinchi soʻzining asarda “raqqosa”, “raqs tushuvchi” semasi keltirilib, asli turkiy soʻz, fe’ldan faoliyat-jarayoni oti undan shaxs oti yasalgan: *o’ynamoq -> o’yin -> o’yinchi*. Bu havli undagi **o’yunchi, sozanda** va **navozanda** kanizlarning sonidan olib “qirq qizlar” atalg’an edi (146).

e) turli kasb egalari: qalamkash, kallapaz, savdogar, tabib, suxandon, qassob.

Qalamkash arabcha “kesdi” ma’nosini anglatuvchi *qalama* fe’lining I bob masdari boʻlib, asli “ingichka qamishdan kesib tayyorlanadigan yozuv quroli” ma’nosini anglatadi. Qalam soʻziga tojikcha *kashidan* fe’lining “chiz-”, “tasvirla-” ma’nosi bilan hosil qilingan *kash* hozirgi zamon asosini qoʻshib tuzilgan boʻlib [ЎТЭЛ (II), 523], asli “qalam tebratuvchi”, “qalamda chizuvchi”, “yozuvchi” [ЎТИЛ (V), 225], “kotib” [АНАТИЛ (IV), 25] mazmunini bildiradi. Asarda ushbu soʻzning aynan kotib, munshiy semasi keltirilgan: *Mirzo Anvar otlig’ elga ma’lum kishi, O’rda ichra qalamkashlik erdi ishi (290).*

Savdogar fors-tojikcha “savdo qiluvchi”, “tijoratchi” mazmunini bildirib, xususiy savdo-sotiq bilan shug’ullanuvchi, savdo-sotiqni kasb qilib olgan kishi [ЎТИЛ (III), 414], “oldi-sotdi bilan shug’ullanuvchi tojir” [АНАТИЛ (III), 18] mazmunida keltirilgan: *Uning “daryoi fazli”ga maftun bo’lg’an savdogarlardan biri qiz qarindoshini berib o’ziga kuyav qildi (85).*

Suxandon tojik tilida “nutq” ma’nosini anglatuvchi *suxan* otiga “bil-” ma’nosini anglatadigan **donistan** fe’lining **don** hozirgi zamon asosini qoʻshib hosil qilingan boʻlib, “gapga chechan”, “notiq” [ЎТЭЛ (III), 219], “soʻz ustasi, notiq, soʻzamol” [АНАТИЛ (III), 131] ma’nolarini anglatadi: *Huzuri muborakdan olib yorlig’, Maydoni qalamkashlikda qilur suxandonlig’ (93).* Ushbu istiloh metafora usuli orqali ma’no ko’chgan.

Tabib leksemasi asli ko’p ma’noli **tabba** fe’lining “davoladi” ma’nosi bilan hosil qilingan I bob masdari boʻlib, arab tilida “shifokor”,

“vrach” [ЎТЭЛ (II), 402] ma’nosini bildirib, “bemorlarni davolovchi mutaxassis vrach”, “tibbiyot ilmidan muayyan mutaxassis tayyorlovchi o’quv yurtida ta’lim olmagan, o’z harakati, hayotiy tajribasi orqali bemorlarni davolash bilan shug’ullanuvchi shaxs” semalari mavjud. Ushbu so’zning ikkinchi semasi hozirgi o’zbek adabiy tilida faol: *Kuyavi tabibga yugurdi*. “Qutadg’u bilig”da tabib termini o’rniga *otači* sof turkiy so’z qo’llangan bo’lib, *ota*= “davolamoq” fe’liga -*či* shaxs oti yasovchi qo’shimcha qo’shish orqali yasalgan [Холмурадова 2019, 82]. “Devonu lug’otit turk”da ham *otači* “davolovchi, tabib” ma’nosi-da qayd etilgan [ДЛТ (I), 299].

Xulosa qilib aytganda, asar matnida ijtimoiy-siyosiy hayotdagi har bir sinf vakili bilan bog’liq mansab-martaba, kasb-hunar nomlari keltirilgan. *Hokim, tabib, qoravul* kabi terminlar bugungi kunda ma’no torayishiga uchragan bo’lsa, *hudaychi, mingboshi, qush-begi, shag’ovul, yasovul* kabi istilohlar adabiy tilda ishlatilmaydi, balki asarlarda tarixiy koloritni berish vazifasini o’tovchi leksik birlikka aylangan.

Shartli qisqartmalar

АНАТИЛ – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1983.

Тошкент: Фан.

АРС – Баранов Х.К. 1976. *Арабско-русский словарь*. Москва: Русский язык.

ДЛТ – Махмуд Кошғарий. 1960. *Девону луғотит турк*. Тошкент: Фан.

НАЛ – Шамсиев П. 1972. *Навоий асарлари луғати*. Тошкент: Ғафур Ғулом.

ТЖРС – *Таджикско-русский словарь*. 1954. Москва: Госиздат ин. и нац. словарей.

ЎТИЛ – *Ўзбек тилининг изоҳли луғати*. 2006. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.

ЎТЭЛ – *Ўзбек тилининг этимологик луғати*. 2009. Тошкент: Университет.

ЭСТЯ – Севортян Э.В. 1974. *Этимологический словарь тюркских языков*. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Алишер Навоий. *Мукаммал асарлар тўплами*. 1998. XV том. Тошкент: Фан.

Бурячок, А.А. 1983. *Формирование социально-политической лексики*. Москва: Наука.

Дадабоев Х. 1990. “Военная лексика в староузбекском языке”. *Проблемы лексики староузбекского языка*: 75-77. Тошкент.

Замонова, Л. 2012. *Ўзбек тили ижтимоий-сиёсий терминологияси тараққиёти*. Тошкент.

Исоқова, З.М. 2010. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асари-

даги ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фан. ном. ...
дисс. автореф. Тошкент.

Мўминова, О. 2009. *Ўзбек тилида мансаб ва унвон номларининг лексик-семантик таркиби*. Тошкент: Алоқачи.

Носиров, О., Юсупов М. 2003. *Арабча-ўзбекча луғат*. Тошкент.

Ўразбоев, А. 2018. *Оғаҳий тарихий асарлари лексикаси*. Фил. фан. д-ри. ...дисс. Тошкент.

Холмурадова, М. 2019. *"Қутадғу билик" лексикаси*. Фил. фан. док. ... дисс. Тошкент.

Qodiriy, Abdulla. 2018. *Mehrobdan chayon*. Toshkent: G'afur G'ulom.

Socio-political vocabulary expressed in the work "Mehrobdan chayon"

Surayyo Ziyotova¹

Abstract

Language is an evolving process that reflects the realities and changes that have taken place in society. As language and society are inextricably linked, the structure of a dictionary will change over the centuries. The socio-political environment in a society, the period, the change in the society, are reflected in the socio-political lexemes that describe this process. As you know, each language has its own lexical base. This is influenced by the period in which the work was created and the events in which the work is described, as well as intralinguistic and extralinguistic factors. The lexics of the work "Mekhrobdan chayon" includes lexical units that reflect the socio-political, economic, cultural, educational and daily concepts of the late nineteenth century, the period of the Jadids, the twentieth century. In this article, the socio-political lexical units in the Abdulla Qadiri's work "Mekhrobdan chayon" is analyzed from a historical and etymological point of view.

Key words: *term, socio-political lexeme, semi-system, narrowing of meaning, expansion of meaning, diachronic aspect*

¹ *Surayyo E. Ziyotova* – PhD student, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: z.surayyo_92@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-7674-6875

For citation: Ziyotova, S.R. 2022. "Socio-political vocabulary expressed in the work "Mehrobdan chayon". *Uzbekistan: Language and Culture* 2: 44–60.

References

- Alisher Navoiy. *Mukammal asarlar to'plami*. 1998. XV tom. Toshkent: Fan.
- Buryachok, A.A. 1983. *Formirovanie sotsialno-politicheskoy leksiki*. Moskva: Nauka.
- Dadaboyev, X. 1990. "Voennaya leksika v starouzbekskom yazike". *Problemy leksiki starouzbekskogo yazika*: 75-77. Toshkent.
- Zamonova, L. 2012. *O'zbek tili ijtimoiy-siyosiy terminologiyasi taraqqiyoti*. Toshkent.
- Isoqova, Z.M. 2010. *Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asaridagi ijtimoiy-siyosiy leksika*: Filol. fan. nom. ...diss. avtoref. Toshkent.
- Mo'minova, O. 2009. *O'zbek tilida mansab va unvon nomlarining leksik-semantik tarkibi*. Toshkent: Aloqachi.
- Nosirov, O., Yusupov, M. 2003. *Arabcha-o'zbekcha lug'at*. Toshkent.
- O'razboev, A. 2018. *Ogahiy tarixiy asarlari leksikasi*. Fil. fan. d-ri. ...diss. Toshkent.
- Xolmuradova, M. 2019. *"Qutadg'u bilik" leksikasi*. Fal. fan. dok. ... diss. Toshkent.
- Qodiriy, Abdulla. 2018. *Mehrobdan chayon*. Toshkent: G'afur G'ulom.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lim, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochta-siga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yoqda, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki"

shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasida qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

VII. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

VIII.1. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*, Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya, kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq mualliflari bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismlari to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda birinchi muallif ismi yoziladi va "boshqalar" deb ko'rsatiladi.

[Familiya va boshqalar kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*.

Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Маматов 2018, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

VIII.2. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8. Toshkent.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

VIII.3. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro‘yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo‘yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo‘lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko‘rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?.” *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. “Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi”. *UZA: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so‘ngida foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxati ikki qismdan iborat bo‘lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko‘rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini “The Chicago Manual of Style, 16th Edition” qo‘llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle> havo-lasidan ko‘rib olishingiz mumkin.

GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS

Uzbekistan: language and culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any opinions and views expressed in publications are the opinions and views of the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

1. General

- Submission Guideline

1. Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s)'.

2. Manuscript format

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of *The Chicago Manual of Style*, 16th Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;

- a list of references of no more than five (5) pages;

- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: *Title of the Book*. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).

- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.

Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.

Level 3. Modified “down” style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.

Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

3. Style and Usage

1) Translation

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, “Author’s own” translations of quoted texts should be noted as such.

- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.

- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.

- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.

- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([]).

2) Names and Terms

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

4. Quotation

1) Block Quotations:

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

5. Others

1) There is one space after sentence punctuation and not two.

2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.

3) For parentheses within parentheses, use brackets ([]).

6. Basic Citation Format

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of *The Chicago Manual of Style*.

BOOK

Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

In Text Cite:

[Pollan 2006, 99–100]

Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

In Text Cite:

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

In Text Cite:

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of *University of Chicago Readings in Western Civilization*, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

In Text Cite:

[Cicero 1986, 35]

BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a

chapter or other number.

Reference List (hanging indent):

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

In Text Cite:

[Austen 2007, 101]

Reference List (hanging indent):

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*. Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders>

In Text Cite:

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

JOURNAL ARTICLE

Article in a print journal

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

Reference List (hanging indent):

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439–58.

In text cite:

[Weinstein 2009, 440]

Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

Reference List (hanging indent):

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405–50. doi:10.1086/599247.

In text cite:

[Kossinets and Watts 2009, 411]

Article in a newspaper or popular magazine

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

Reference List (hanging indent):

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

In text cite:

[Mendelsohn 2010, 68]

Reference List (hanging indent):

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

In text cite:

[Stolberg and Pear 2010, 12]

WEBSITE

A citation to website content can often be limited to a mention in the text ("As of July 19, 2008, the McDonald's Corporation listed on its website . . ."). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

Bibliography (hanging indent):

Google. 2009. "Google Privacy Policy." Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

In text cite:

[Google 2009]

Reference List (hanging indent):

McDonald's Corporation. 2008. "McDonald's Happy Meal Toy Safety Facts." <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

In text cite:

[McDonald's 2008]

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan 0936-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga
kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 30.06.2022-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturası.
Shartli b.t. 7,51. Nashr b.t. 7,62.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida
tayyorlandi va sahifalandi.
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.